


VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga 43329 tani tashkil etib, ulardan 40677 tasi yoki 93,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 5001 taga yoki 13,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-sentabr oylari davomida viloyatimizda 6926 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1444 taga kamaygan.


**Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi**
(2022- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	43 329	100,0	40 677	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8180	18,9	7607	18,7
Sanoat	5866	13,5	5445	13,4
Qurilish	3595	8,3	3449	8,5
Savdo	12787	29,5	11962	29,4
Tashish va saqlash	1099	2,5	1056	2,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2228	5,1	1965	4,8
Axborot va aloqa	501	1,2	483	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	871	2,0	832	2,0
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	8202	19,0	7878	19,4


Korxonalar va tashkilotlar soni

	2022-yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan	shundan:	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	43329	6926	1353
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	8015	982	408
Shahrisabz	2466	416	61
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	2305	467	72
Dehqonobod	2009	333	64
Qamashi	2949	499	113
Qarshi	3092	445	71
Koson	3388	540	63
Kitob	3043	400	60
Mirishkor	1774	350	22
Muborak	1440	228	86
Nishon	1920	295	27
Kasbi	2035	413	85
Ko'kdala	1268	253	9
Chiroqchi	2464	412	61
Shahrisabz	2197	410	57
Yakkabog'	2964	483	94


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar-sentabr oylarida eng katta ulushni savdo sohasi – 35,9 % (2489 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 21,5 % (1490 ta), sanoat – 18,6 % (1285 ta) va boshqa turlar – 10,2 % (712 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)

20 076



Mas'uliyati
cheklangan jamiyat

5 914



Oilaviy korxonona

127



Unitar korxonona

11 464



Xususiy korxonona

45




Aksiyadorlik jamiyati

653




Boshqalar

*Mas'uliyati cheklangan jamiyat,
birlikda*



*Xususiy korxonona,
birlikda*




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)**



2022- yil 1- oktabr holatiga 35766 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 10 560 ta, oilaviy korxonalar – 5 200 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 19 233 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 43 ta, unitar korxonalar – 123 ta va boshqalar – 607 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)**



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 6926 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,7 % tashkil etmoqda.

Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3333 ta, oilaviy korxonalar 1591 ta, xususiy korxonalar 1699 ta, muassasalar 156 ta va boshqalar 147 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga 5914 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1398 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5200 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 975 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 714 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 423 taga oshganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi G'uzor (281 ta), Koson (203 ta), Shahrisabz (195 ta), Qarshi (193 ta), Chiroqchi (145 ta), Qarshi shahri (139 ta), Qamashi (95 ta), Ko'kdala (87 ta), Kitob (64 ta), Dehqonobod (51 ta), Muborak (38 ta), Nishon (28 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Shahrisabz shahar (26 ta), Mirishkor (23 ta), Yakkabog' (17 ta), Kasbi (6 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2022- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga 20076 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2816 taga yoki 16,3 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19233 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2452 taga yoki 14,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3333 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 779 taga yoki 81,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni (1- oktabr holatiga, birlikda)




2022- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamiyati ulushi Qarshi shahrida 22,4 %, Koson 10,6 %, Qamashi 8,5%, Yakkabog' 7,9 %, Qarshi 6,1 %, Kasbi 5,7 %, Chiroqchi 5,6 %, Mirishkor 5,6 %, Nishon 4,8 %, Kitob 4,7 %, G'uzor 4,1 %, Muborak 4,0 %, Shahrisabz shahrida 3,6 %, Shahrisabz 2,8 %, Ko'kdala 2,0 % va Dehqonobod tumanlarida 1,6 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonona</i>	<i>Xorijiy korxonona</i>
Qashqadaryo viloyati	245	161	84
G'uzor	12	9	3
Dehqonobod	17	11	6
Qamashi	14	10	4
Qarshi	16	10	6
Koson	24	14	10
Kitob	18	12	6
Mirishkor	8	4	4
Muborak	11	6	5
Nishon	17	13	4
Kasbi	8	3	5
Ko'kdala	5	4	1
Chiroqchi	10	8	2
Shahrisabz	5	3	2
Yakkabog'	19	11	8
Qarshi sh.	55	41	14
Shahrisabz sh.	6	2	4

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 109 ta (44,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 53 ta (21,6 %) hamda savdoda 42 ta (17,1 %), qurilishda 13 ta (5,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda mos ravishda 8 ta (3,3%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqa 1 ta (0,4%), tashish va saqlash 4 ta (1,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 6 ta (2,5%) ni tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqada, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Kichik tadbikorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni
(1- oktabr holatiga, birlikda)



**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- oktabr holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>mikrofirmalar</i>	<i>kichik korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	35543	34174	1369
G'uzor	1932	1861	71
Dehqonobod	1619	1592	27
Qamashi	2532	2479	53
Qarshi	2547	2447	100
Koson	2952	2891	61
Kitob	2509	2382	127
Mirishkor	1464	1443	21
Muborak	1177	1141	36
Nishon	1579	1532	47
Kasbi	1672	1623	49
Ko'kdala	1022	1000	22
Chiroqchi	2023	1966	57
Shahrisabz	1552	1491	61
Yakkabog'	2419	2346	73
Qarshi sh.	6640	6189	451
Shahrisabz sh.	1904	1791	113

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- oktabr holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.